

NEKRONIMLAR ONOMASTIK BIRLIK SIFATIDA

Xushboqova Xurshida Qo'ldosh qizi

Termiz davlat universiteti o'zbek tili ixtisosligi

I-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda nekronimlar onomastikaning tarkibiy birligi sifatida o'rganilib, nekronim tushunchasining mazmuni ko'rsatib beriladi. Nekronimlarning xalqning diniy e'tiqodi, tarixiy xotirasi madaniyatidagi o'rni yoritiladi. Ularning tilshunosikdagi nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: onomastika, nominativ birliklar, toponomik obyekt, nekronim, lingvokulturologiya, tarixiy xotira, til va madaniyat,

Til – inson tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining mahsuli bo'lib, u nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat, tarix va ruhiyatning asosiy ko'zgusidir. Har bir xalqning tili esa uning o'zligini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Til orqali insonlar nafaqat fikr almashadilar, balki o'z tarixini, qadriyatlarini, madaniy merosini avloddan avlodga yetkazadilar.

Tilda mavjud bo'lgan har bir birlik – so'z, ibora, grammatick shakl ham o'zida ma'lum bir mazmun, semantik yuk hamda tarixiy qatlamni mujassamlashtiradi. Ayniqsa, nominativ birliklar tilning eng qadimiy va mustahkam qatlamlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda onomastika (nomshunoslik) – nomlar haqidagi fan, tilshunoslikning maxsus bo'limi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Onomastika orqali tilning tarixiy taraqqiyoti, xalqning o'tmishdagi urf-odatlari, geografik muhitga bo'lgan munosabati, diniy va ijtimoiy tushunchalari ochib beriladi. Negaki har bir nom – bu til orqali shakllangan tarixiy-madaniy belgidir.

Onomastika – yunoncha so'z bo'lib, “*nom qo'yish san'ati*” degan ma'noni ifodalaydi va tilshunoslik sohasi sifatida turli xil nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi va tarixiy rivojlanishini tadqiq qiladi. Hozirgi kunda bu

termin ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi¹. Bu soha nafaqat tilshunoslik bilan, balki tarix, geografiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Onomastikaning o'zi esa *atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga* ko'ra **antroponomika** (kishilarning atoqli nomlarini), **toponomika** (geografik obyektlarning atoqli nomlarini), **teonimika** (turli diniy tasavvurlar bilan bog'liq nomlarni), **zoonimika** (hayvonlarga qo'yilgan atoqli nomlar) va **astronomika** (ayrim osmon jismlariga qo'yilgan nomlar) kabi bir qator shunga o'xshash bo'limlardan tashkil topgan. Mazkur bo'limlarning o'zi ham o'rganilish obyektiga qarab bir qancha ichki guruhlarga ham bo'lingan. Shulardan biri *toponimiya* (lotincha "topos" – joy, "onoma" – nom) tarkibiga kiruvchi nekronimlardir.

Nekronim – bu onomastika, xususan, toponimikaning maxsus sohasi bo'lib, yunoncha "nekros" – "o'lik, marhum", "onoma" – "nom" ma'nolarini anglatadi. Ya'ni *nekronimika* – onomastikaning qabristonlar, mozorlar, maqbaralar, ziyoratgohlar nomlarini o'rganadigan tarmog'idir. Umumiyligida qilib aytganda, nekronimlar dafn etish joylari bilan bog'liq muqaddas joylarning atoqli nomlaridir. Bu borada tilshunos olim A.Aslonov o'zining nomzodlik ishida Shofirkon tumani onomastikasiga xos xususiyatlardan biri uning tarkibida anchagina miqdorda nekronimlarning uchrashidir, deb hisoblaydi hamda 131 masjid, 66 mozor, 17 avliyo, 10 ta qabriston, 2 ta xonaqo (xonaqoh) nomini to'playdi. Bunday nekronimlarning umumiyligida miqdori 230 dan ortiq ekanligini ta'kidlaydi². Shunga ko'ra nekronimlar deyilganda esa ushbu termin anglatuvchi ma'noga mos ravishda qabrlar, qabristonlar (mozorlar, mozoristonlar), shuningdek ba'zi diniy obyektlar

¹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.60.

² Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. НДА. – Тошкент, 2005. – Б. 14-16.

nomi (masjid, madrasa, xonaqoh kabilar)ni tushunish maqsadga muvofiqdir³.

Nekronimlar lingvistik kategoriya sifatida onomastikaning muhim qismi bo'lib, ularning morfologik, sintaktik va semantik jihatlari chuqur tahlilni talab qiladi. Ular xalq e'tiqodi, diniy qarashlari va tarixiy xotirasi bilan bog'liq bo'lib, til tizimida o'ziga xos barqaror birlik sifatida mavjud.

Nekronimlar insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, ular orqali jamiyatning diniy qarashlari, qadriyatlari, e'tiqod va estetik tushunchalari ifodalanadi. Nekronimlar til tizimida joy nomlari (toponimlar) tarkibida namoyon bo'ladi. Mazkur nomlar nafaqat ma'lumot beruvchi (identifikatsion) vazifani bajaradi, balki muayyan hududning diniy, tarixiy, madaniy va etnik qiyofasini ham ifodalaydi. Shu jihatdan ularni onomastik birlik sifatida tahlil qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Nekronimlar – xalqning diniy qarashlari, tarixiy xotirasi va marosimiy madaniyatining til shaklidagi ifodasidir. Ularni o'rganish tilshunoslik, tarix, etnologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishgan nuqtada yotgan dolzarb masalalardan biridir. Chunki nekronimlar nafaqat muayyan joyning nomi sifatida, balki muqaddaslik timsoli, ijtimoiy ong mahsuli, qadriyatlар aks ettiruvchisi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Nekronimlarni lingvistik jihatdan o'rganish orqali xalq orasida saqlanib qolgan arxaik leksik qatlam, dialektal xususiyatlar, diniy atamalar va tarixiy semantika aniqlanadi. Ayniqsa, qabrlar, maqbaralar, ziyoratgohlar kabi joylarning nomlari turli davrlar tilining, diniy mafkuraning va madaniy an'analarning aks-sadosi sifatida tahlil qilinadi. Masalan, "Avliyo ota", "Bibi Seshanba", "Shohizinda", "Sulton Saodat" kabi nekronimlar nafaqat joy nomlari, balki tarixiy shaxslar va e'tiqodiy timsollar bilan bog'liqligiga ko'ra alohida ilmiy qiymatga egadir.

³ Бу ҳақда қаранг: **Авлиёқулов Я.** Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008. – Б. 15-18.

Shuningdek, nekronimlar geografik nomlar tizimini to'ldiradi va xalq toponimik ongining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu nomlar ko'pincha avloddan avlodga og'zaki tarzda yetib kelgan bo'lib, ularning o'rganilishi orqaligina tarixiy voqealar, qadimiylar yoki diniy urf-odatlar haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. Shu bois nekronimlar faqat tilshunoslik obyekti emas, balki milliy-madaniy xotiraning uzviy qismi sifatida qaraladi. Ularning ilmiy tahlili nafaqat onomastik tafakkurni boyitadi, balki xalqning diniy-ma'naviy merosini ilmiy asosda tizimlashtirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Buxoro: 2023. –180 b.
2. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. НДА. – Тошкент, 2005. – Б. 14-16.
3. Авлиёқулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008. – Б. 15-18.
4. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. –Б.60.